

MILLIY IQTISODIYOTNING MANAVIY ASOSLARI

Axmedov Alim Babaniyazovich

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
"Biznes boshqaruvi va statistika" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotimizda manaviy asoslarning o'rni, tarixda va bugunda O'zbekiston iqtisodiyotidagi ahvol haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiyot, bozor, manaviy asoslar, reklama, milliy iqtisodiyot, xo'jalik, mehnat taqsimoti, tarix, O'zbekiston, jahon, mamlakat.*

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan yangi, mustaqil rivojlanayotgan, o'z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanib bormoqda. Milliy iqtisodiyot - barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro- va makrodarajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir. Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, xalq xo'jaligi, yaxlit tarzdagi mamlakat iqtisodiyoti - bular bir-biriga ayniy tushunchalar bo'lib, ma'lum hududiy chegaralarda tarixan tarkib topgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimini tavsiflaydilar. Milliy iqtisodiyot uni jahon hamjamiyatidagi boshqa mamlakatlardan ajratib turuvchi tarixiy, tabiiy-geografik, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni o'zida namoyon etadi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro- va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. O'zbekiston o'tmishda yer yuzidagi aholi xo'jalik faoliyati goyat qizgin kechgan eng qadimiy o'lkalardan biri bo'lgan. Ilk davlatchilik o'zaklari ham bevosita bizning yurt bilan bog'liqdir. Mamlakatimizning G'arb bilan Sharq o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay bo'lgan geografik o'rni, saxiy tabiati, boy va rang-barang tabiiy resurslari, mehnatkash va dono xalqi umumbashariy taraqqiyotga munosib hissa qo'shgan. Asrlar davomida sug'orma dehqonchilik, yaylov chorvachiligi va xilma- xil hunarmandchilikka asoslangan o'lkamiz iqtisodiyoti jahon bozorlarida o'zining ko'p turdagi qimmatli ma'sulotlari bilan qatnashib kelgan. U bir zamonlar "Buyuk ipak yo'li" bo'yidagi eng gavjum bozorlar mamlakati bo'lgan. Shuningdek, Jahon fani va madaniyati ravnaqiga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyolik buyuk allomalar-Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Ulug'bek va boshqalarning Vatanidir. O'z vaqtida ancha bozorgir bo'lgan mahalliy mahsulotlar paxta, ipak, qorako'l, metal, zargarlik buyumlar ishlab chiqarish izdan chiqib boshladi. Bu jarayon Turkistonning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalariga ham salbiy ta'sir etdi, hattoki milliy parakandalikka keng yo'l ochildi. XVIII asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida Buxoro amirligi, Xorazm va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Bu davrda o'lka aholisining asosiy mahsuloti qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'lib, ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan

shug'ullanardilar. O'rta Osiyo xonliklarida sanoat mahsulotlari asosan hunarmandchilik asosida ishlab chiqarilar edi. Shahar hayoti XVIII asr oxirlaridan XIX asr o'rtalarigacha Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Xiva, Urganch, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent, Andijon kabi shaharlarda ancha taraqqiy qilgan bo'lib, ularda to'qimachilik, kulolchilik, zargarlik, chilangarlik, duradgorlik, badiiy buyumlar ishlab chiqarilar edi. O'rta Osiyoda ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdo karvonlar orqali Hindiston, Eron, Qashg'arga, Qozoq o'lkalari hamda ular orqali Sibir va Rossiyaning ichki bozorlariga olib chiqarilgan. Shu davrda ayniqsa paxta va pillaga, qorako'l terisi, quruq mevalarga tashqi bozorda ehtiyoj katta bo'lgan.

Ana shunday imkoniyatlarga ega ushbu mintaqaga XIX asrdan boshlab Angliya va Chor Rossiyasi qiziq boshladi. Xonliklar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardan foydalanib, Chor Rossiyasi XIX asrning 2-yarmida Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirdi. Chor Rossiyasi bosib olgandan keyin O'rta Osiyo Rossiyani xom ashyo va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlashi kerak edi. Chunki shu davrgacha Rossiya to'qimachilik sanoatining asosiy xom ashyosi hisoblangan paxtani asosan AQSH va O'rta Osiyodan olar edi. O'zbekistonda og'ir sanoat tarkibiga metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarivchi korxonalaridan tashqari, Chimyon neft va Sho'rsuv oltingugurt koni hamda Oltiariq (Vannovsk)dagi uncha katta bo'lmagan neftni qayta ishlash zavodi ham kirgan. Sanoat korxonalarini hududiy joylashuvi juda notekis bo'lib, ularning 70 foizi Farg'ona vodiysi shaharlarida joylashtirilgan. Turkistonda moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari yetarlicha rivojlanmagan edi. Ayniqsa, sanoat va transport tarmoqlari juda sust rivojlangandi. Ma'naviy-ma'rifiy sohalar aholi ehtiyojlarini qondirolmadi. Umuman olganda, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bu davrda mustamlaka mamlakatlarga xos ko'rinish kasb etgan. qtisodiyot baynalmilal xodisa bolib, uning oldida turgan vazifalar barcha xalqlar va mamlakatlar uchun bir xil, ammo ular rivojlanish davomida turlicha natijalarga erishganlar. Hozirgi davrda ham bozor iqtisodiyotining prinsiplari hamma uchun bir xil bolishiga qaramasdan natijalar turlichadir. XVIII asr oxirida klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit va David Rikardo obyektiv, ya'ni inson xohishiga bogliq bolmagan, ammo, ular tomonidan organilishi mumkin bolgan qonunlar asosida amal qiluvchi xojalik tizimi tog'risidagi ta'limotni yaratdilar. Ularning fikricha, davlatning iqtisodiy siyosati bu qonunlarga xilof bolmay, aksincha, bu qonunlarga suyanishi kerak, ana shunda iqtisodiyot ravnaq topadi va aksincha. Demak, bu qonun va qonuniyatlarni bilish,

ulardan amaliyotda tog'ri foydalanish hayot talabi bolib bormoqda. Uzoq otmishdagi koptgina og'itlar, hayotiy tajribalar, allomalarning fikri va goyalari hozirgi kunda asqotmoqda, ularni organish va eng muhimi hayotga tadbiiq etish zarur. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi deyarli tort ming yillik rivoji davomida bir qancha bosqichlarni bosib otdi. Hozirgi paytda dunyodagi ilgor goyalarni organish davomida hurfikrlilikka keng orin berish, har qanday fikrni atroflicha tahlil etish kerakligi aniq bo'lib qoldi. Hammaga ma'lumki, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiyoti sobiiq sovet ittifoqi iqtisodiyotining tarkibiiy qismi hisoblanib, uni mustaqil milliiy iqtisodiiyot deb

bo'lmas edi. Bizga bir yoqlama rivojlangan paxta yakkahokimligiga, xom ashyo ishlab chiqarishga va boy mineral xom ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan, yonilg'i, g'alla va boshqa ko'pgina ishlab chiqarish vositalari, iste'mol tovarlarining ta'minlanishi bo'yicha markazga qaram bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. 1991-yil sentyabridan buyon o'tgan qisqa davr mobaynida iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritib, mamlakatimiz hududidagi barcha tabiiy, mineral xom ashyo boyliklardan, butun iqtisodiy resurslar va quvvatlardan o'z xalqimiz va uning kelajagi manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotda ma'naviy asoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy iqtisodiyotga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Milliy iqtisodiyot - ijtimoiy iqtisodiyotning mavjudlik shakli; mamlakat, davlat qududida yashovchi millat xalqlarning tarixan shakllangan yoki tubdan yangilanayotgan, o'zgarayotgan va rivojlanayotgan mulkiy va boshqa ijtimoiy iqtisodiy munosabatlari, ular bilan shartlangan, mahalliy xususiyatlarga ham ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat sohalari, tarmoqlari, tashkilotlari, korxonalari, hududlari va mintaqalari sistemasi. Shu bilan birga har bir muayyan turdagi iqtisodiyotning o'z milliy modellari va shakllari bor. Masalan, kapitalistik Milliy iqtisodiyotning amerikacha, yevropacha va yaponcha turlari, milliy modellari va ularning "aralash iqtisodiyot" deb atalayotgan zamonaviy shakli bor. Zamonaviy sotsialistik Milliy iqtisodiyot Xitoy, Vyetnam va Kubada mavjud bo'lib, unga eng muhim tarmoqlarda sotsialistik davlat mulkini va korxonalarini saqlab qolgan holda, xususiy mulkchilikka, tovarli-pulli xo'jaliklarga va bozor munosabatlariga keng yo'l ochilmoqda. Boshqa ba'zi postsotsialistik mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda o'ziga xos demokratik, bozorga asoslangan umumdemokratik Milliy iqtisodiyot shakllantirilmoqda. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki o'n yilida mamlakatda umummilliy va xususiy mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli Milliy iqtisodiyot — xilma-xil xususiy va davlat xo'jaliklari sistemasi shakllandi. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mutlaq ko'pchiligini yakka shaxsiy, guruh, shirkat, jamoa, aksiyali korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari tashkil etadi; ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi uchdan ikki qismdan oshib ketdi va tobora o'smoqda. Birinchi navbatda, moddiy ishlab chiqarish sohasini intensiv rivojlantirish, mahsulot hajmini, ayniqsa, sof mahsulot hajmini sarf-harajatlarning va aholining o'sishiga nisbatan tezroq o'stirish Milliy iqtisodiyot va iqtisodiy taraqqiyot muammolarini hal etishning, uni uzluksiz yuksaltirishning bosh yo'lidir. Bundan tashqari Milliy iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa tarmoqlari ichida hamda shu tarmoqlar o'rtasida barqaror, o'suvchan tarkibiy o'zgarishlar va maqsadga muvofiq nisbatlar, mutanosibliklar bo'lishi muhimdir.

Shuni eslatib o'tishimiz joizki, mustaqillikning dastlabki yillarida boshqa MDH davlatlaridagi kabi bizning respublikamiz ham anchagina iqtisodiy qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Ular bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan xo'jalikda tarkibiy qayta qurish, sobiq Ittifoq respublikalari bilan iqtisodiy kooperatsiya va ixtisoslashuv aloqalarning uzilishi, hamda boshqa obyektiv va subyektiv sabablar tufayli sodir

bo'lgan edi. Sobiq Ittifoq davlatlari orasida O'zbekiston o'tish davridayoq iqtisodiy barqarorliknigina emas, hatto uning o'sishini ta'minlagan yagona mamlakat bo'lib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. M. Mahmudov, A. B. Shokirov, X. A. Ulashev, J. A. Shokirov "Makroiqtisodiyot" o'quv qo'llanma 2021 y.
2. Mirzaxodjayev A.B., Sharifov Sh.S., Boboqulov S.B., "MAKROIQTISODIYOT" o'quv qo'llanma 2021y.
3. I.O. Yakubov, H.A. Hakimov "MAKROIQTISODIYOT-2" 2019 y.
4. Назаршоев Н.М., Гужина Г.Н., Гужин А.А., Ежкова В.Г. Стратегия развития бизнеса как инструмент управления конкурентоспособностью// Инновации и инвестиции. 2016. № 4. С. 90-92.
5. Петрухина Е.В., Гужин А.А., Величко Н.Ю., Нижарадзе Л.Д., Волкова А.В., Овешникова Л.В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014. - 110 с.